



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**OILADAGI IJTIMOIIY FIKRLARNING PEDAGOGIK
G'OYALARGA TA'SIRI**

Akbarova Feruza Uktamjonovna

Qo'qon davlat universiteti 2- kutrs tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Berilayotgan maqolani mazmunida pedagogik fikrlar rivojida oilaning o'rni va roli tahlil qilingan. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy bo'g'ini sifatida farzand shaxsining shakllanishi, uning axloqiy, ma'naviy va intellektual rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Ota onaning pedagogik madaniyati kelajakda yetishib kelgan yosh avlodning pedagogik jarayon samaradorligiga ta'sirini oshiradi. O'z navbatida Jamiyatdagi zamonaviy pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi oiladagi pedagogik muhitning yangicha shaklga o'tishiga olib keladi. Maqolada ta'lim tizimida insonni har tamonlamarivojlantirishda oilaning o'rni va ro'lini yoritilgan.*

Kalit so'z: *pedagogika, oila, tarbiya, muhit, rivojlanish, tahlil, ma'naviyat, inson ijtimoiy faoliyat, tarix qiyoslash, tafakkur, vazifa, samaradorlik.*

Tarixan qaralganda oila-inson tarbiyasining birlamchi manbasi sifatida pedagogik fikrlar rivojiga katta hissa qo'shgan. Zamonaviy pedagogik g'oyalar bu oila jamiyat va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqaning natijasidir. Oilada shakllanadigan ijtimoiy fikrlar, ota onaning dunyoqarashi, oiladagi ijtimoiy muhit va unda hukmron bo'lgan fikrlarning ro'li shaxsning ijtimoiylashuvi va dunyoqarashining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oiladada paydo bo'lgan axloqiy me'yorlar va jamiyatdagi voqelikka beriladigan baxolarning yig'indisidir. Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy singari sharq mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida pedagogik fikrlar tarixida oilaning o'rni va roli har doim muhim mavzulardan biri bo'lib kelganligini etirof etganlar. Pedagogik fikrlarning tarixiy rivojida Sharq allomalari — Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, Avloniy kabi mutafakkirlar oilaning tarbiyadagi o'rnini chuqur tahlil qilganlar. Masalan, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida oilaviy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosi, farzandni esa “millatning umidi” deb ta'riflaydi. Bu g'oya zamonaviy ta'lim jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida farzandni vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash pedagogik fikrlarning zamonaviy yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yosh avlodni ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Shu bois, oilaning pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni va rolini o'rganish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Oila tarbiyasining samaradorligi, avvalo, ota-onaning pedagogik saviyasi, ularning farzandga nisbatan mas'uliyat hissi bilan bog'liqdir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda oilaning ta'lim tizimi bilan hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab, bog'cha va boshqa ta'lim muassasalari oila bilan uzviy aloqada bo'lgan taqdiridagina tarbiyaviy jarayon samarador bo'ladi. Bu hamkorlik ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, farzand tarbiyasida yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida oilaning ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni tahlil etilib, oilaviy tarbiyaning innovatsion yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar berilgan. maqolada. Bugungi kunda globallashuv, texnologik yangilanish va ma'naviy yangilanish sharoitida oilalarda jamiyat taraqqiyotiga oid fikrlarning ortishi kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat shaxsiy, balki milliy taraqqiyotning ham muhim omilidir.

Oilada ijtimoiy tafakkurning shakllanishi

Oila – insonni tarbiyalovchi eng qadimiy ijtimoiy institutdir. Quyidagi omillar oilada jamiyatga nisbatan fikrlar rivojiga ta'sir qiladi:

- Ma'naviy muhit – ota-onaning dunyoqarashi, kitobxonlik madaniyati, suhbatlar mazmuni; Oilaviy madaniyat tasirida.

- Axborot makoni – internet, televideniye, ijtimoiy tarmoqlarda oilaning faol ishtiroki; Jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan qarashlari

- Ta'limga munosabat – farzandning o'qishga, bilimga, yangilikka qiziqishini rag'batlantirish; Kelajakka nisbatan masuliyati sababli

- Vatanga muhabbat va ijtimoiy faollik – fuqarolik mas'uliyatini shakllantiruvchi suhbatlar, oilaviy qadriyatlar. Yangicha pedagogic fikrlarni paydo bo'lishiga sabab bola oladi.

2. Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan fikrlarning ortish sabablari.

Bugungi oilalarda bu fikrlarning kuchayishi bir necha sabablar bilan izohlanadi:

- Axborot ochiqligi va global muloqot imkoniyatlarining kengayishi; Oilalardagi tashqarida bolayotgan pedagogi o'zgarishlarga nisbatan xulosalar paydo bo'ladi.

- Ta'lim tizimining modernizatsiyasi – ota-onalar farzandlarini zamonaviy kasblarga yo'naltirishi; Bu jarayon oilaning kuzatuv va kelajakka nisbatan fikridan kelib chiqadiva ta'limda kutilayotgan islohatlarga munosabatini ko'rsatadi.

- Ijtimoiy ongning o'sishi – jamiyat hayotiga daxldorlik hissi ortib borishi; Oilada shakllanayotgan yoshlarni pedagogik jarayonlardagi kamchiliklar ko'ra olish qobiliyati oshadi

- Ayollar va yoshlarning faolligi – oilaviy qarorlar qabulida ularning fikrining kuchayishi. Yangi pedagogik jarayonda yuzaga keladigan o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadai.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



3. Fikrlar ortishining ijobiy ta'siri

- Oila a'zolari ijtimoiy mas'uliyatli, faol fuqarolar bo'lib yetishadi. Bu esa pedagogik jarayonnazoratini ham keltirib chiqaradi

-Jamiyatda yangilikka ochiqlik, innovatsion tafakkur, demokratik qadriyatlar mustahkamlanadi. Natijada pedagogika sohasidagi islohotlarga nisbatan munosabat yuzaga keladi.

-Oilalar orasida madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik rivojlanadi. Shu sabab amiyatni xalqarolashuv va globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki baxolanadi.

-Har bir a'zoda o'z fikrini erkin ifodalash, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shuning uchun oiladagi fikrlar bevosita pedagogic g'oyalarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Oilada jamiyat taraqqiyotiga nisbatan fikrlarning ortishi – bu ijtimoiy ongning yuksalishi belgisi bo'lib, jamiyatning har bir qatlamida yangilanish, mas'uliyat va hamjihatlik muhitini shakllantiradi. Bunday oilalar barqaror jamiyatning poydevori hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti bevosita inson tafakkurining yuksalishi, bilim va madaniyat darajasining oshishi bilan chambarchas bog'liq. Oila — pedagogik fikrlar rivojida eng muhim omillardan biri bo'lib, shaxsni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda asosiy tayanch nuqtadir. Shu sababli, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ota-onalarning pedagogik saviyasini oshirish hamda milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash hozirgi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Qodirova F. Oila npedagogikasi, -T.: 2021.
2. Saidahmedov N. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda pedagogic innovatsiyalar. T.: 2017.
3. Jalolov J. Pedagogik tafakkur taraqqiyoti. T.: 2018.
4. Hasanboyeva O. To'raqulova N. Pedagogika. T.: 2019.
5. UNESCO. Famiy, Education and Society: Global Perspectives.- Paris:.. 2022.